

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7

2023




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti



7491

ISSN: 2992-8982

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari.....	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari.....	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development:	
Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятий в условиях глобальной потепление земли.....	34
Кучаров Аброр Сабиржанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соисследователь	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills	
of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmnинг аhamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyeddinov Majit Janizaqovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjyetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faoliyatini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombok Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abduturapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatichiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxamedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендер Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri.....	222
Kutbitdinova Moixigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Targetirovaniye inflatsii v Uzbekistane: predposylki primeneniya i pervyye itogi	233
Рашидов Рахимжон Исандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova, talaba	
Prioryetetnye napravleniya modernizatsii sistemy podgotovki turistskikh kadrov.....	299
Ochilova Xilola Farmonovna, k.э.н., dozent	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz, Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant	
Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktarant	
Optimizatsii operatsionnoi strategii i povyshenie ekonomicheskogo potentsiala chlopkovo-tekstil'nykh klastерov	334
Dzhurabaev Otabek Dzhurabaevich, dozent kafedry	
Neobходimost' upravleniya aktivami i passivami sovremennymi bankami Uzbekistana	341
Fattahova Munisa Abduxamitovna	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeva Akmole Sheraliyevich, magistrant	
Cifrovaya valyuta:可能ные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Baxromov Mirzaakhmad Rustam ugли, student; Abdikarimova Dina Rустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari.....	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti	
Oсобенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
D. K. Ismagilov, kandidat pedagogicheskikh nauk, dozent	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo, PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	



XALQARO DIVIDEND SIYOSATI TAJRIBALARIDA “S&P 500 DIVIDEND ARISTOCRATS” AMALIYOTI VA UNI MILLIY FOND BOZORIDA QO’LLASH IMKONIYATLARI

Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna

Toshkent moliya instituti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada rivojlangan korporatsiyalarda dividend siyosatini tashkil etish amaliyoti, dividend to’lovleri tahlili hamda dividend siyosatini amalga oshirishda o’ziga xos jihatlar yoritib berilgan, shuningdek, rivojlangan korporatsiyalar tomonidan dividend siyosatini yuritish tajribalaridan hisoblanuvchi “S&P 500 DIVIDEND ARISTOCRATS” (Dividend aristokratlari) amaliyotini respublikamiz aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida qo’llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: dividend siyosati, dividend to’lovleri, aksiyadorlar, aksiya bahosi, sof foyda, investorlar, dividend aristokratlari, “S&P 500 DIVIDEND ARISTOCRATS” indeksi.

Аннотация: В статье освещается практика организации дивидендной политики в развитых корпорациях, анализ дивидендных выплат и особенности реализации дивидендной политики, а также исходя из опыта проведения дивидендной политики развитыми корпорациями даны рекомендации по применению практики “S&P 500 DIVIDEND ARISTOCRATS” (Дивидендные аристократы) в деятельности акционерных обществ нашей республики.

Ключевые слова: дивидендная политика, дивидендные выплаты, акционеры, цена акций, чистая прибыль, инвесторы, дивидендные аристократы, индекс “S&P 500 DIVIDEND ARISTOCRATS”.

Abstract: The article highlights the practice of organizing a dividend policy in developed corporations, the analysis of dividend payments and the specifics of the implementation of a dividend policy, and based on the experience of conducting a dividend policy by developed corporations, recommendations are given on the application of the S&P 500 DIVIDEND ARISTOCRATS practice in the activities of joint-stock companies of our republic.

Key words: dividend policy, dividend payments, shareholders, share price, net profit, investors, S&P 500 DIVIDEND ARISTOCRATS index.

KIRISH

Ma'lumki, qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini jamlash va uni investitsiya jaray-onlariga yo'naltirishning muhim vositasidir. Bu borada hozirgi kunda respublikamizda ham kapital bozorini, fond bozorini rivojlantirishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan maqsadlar, vazifalar, bajarilishi lozim bo'lgan bir qator chora-tadbirlar mavjuddir.

Xususan, Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida Respublika miqyosidagi fond bozori aylanmasini 200 million dollardan 7 milliard dollarga yetkazish maqsadi belgilab qo'yilgan¹. Fikrimizcha, bu borada dividend siyosatini optimallashtirish bo'yicha yetuk xorij tajribalaridan foydalanish, ushbu maqsadga erishishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Zero, oqilona dividend siyosatisiz oqilona investitsiya siyosati bo'lishi mumkin emas.

Demak, bu borada xorijiy korporatsiyalar dividend siyosatini yuritish tajribalaridan samarali foydalanish orqali respublikamizdagи aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish va pirovard natijada mamlakatimiz fond bozorini rivojlanishida ijobji natjalarga erishish mumkin bo'ladi². Bu esa biz tomonimizdan o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligini ko'rsatib beradi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli Farmoni

2 Шеркузиева Насиба Аброровна. Ривожланган корпорацияларда дивиденд сиёсатини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2020. №1 (133). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rivozhlangan-korporatsiyalarda-dividend-siyosatini-tashkil-etishning-ziga-hos-hususiyatlari> (дата обращения: 09.06.2023).



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Dividend siyosati korporativ moliya bo'yicha adabiyotlarda eng ko'p bahslarga va muhokamalarga sabab bo'lувчи mavzulardan biri hisoblanadi. Va hozirgi kunda ham rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlar moliya bozorlarini tadqiq etishda muhim o'rnlarni egallab kelmoqda.

Jumladan, xorijiy iqtisodchi olimlar Dj.K. Shim va Dj.G. Sigel tomonidan mazkur siyosatning bir qator o'ziga xos jihatları shakllantirilgan bo'lib, ularning ta'kidlashicha:

"birinchidan, dividend siyosati investorlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi. Aksiyadorlar dividendlarni muntazam kamaytiradigan aksiyadorlik jamiyatlariga salbiy munosabatda bo'lishadi, chunki, ular bu pasayishni aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy qiychiliklari bilan bog'lashadi, buning natijasida ular o'z aksiyalarini sotishi va mazkur holat o'z navbatida aksiyalar bozor narxini tushib ketishiga sabab bo'lishi mumkin;

ikkinchidan, dividend siyosati aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy strategiyasiga va kapital qo'yilmalar byudjetiga ta'sir qiladi;

uchinchidan, dividend siyosati aksiyadorlik jamiyatining pul oqimiga ta'sir ko'rsatadi. Likvidlilik darajasi yuqori bo'Imagan aksiyadorlik jamiyatları dividend to'lovlarni cheklashga majbur bo'lishi mumkin;

to'rtinchidan, dividendlar foydadan to'langanligi sababli aksiyadorlik kapitalini kamaytirish xususiyatiga ega. Natijada, qarz kapitalini aksiyadorlik kapitaliga nisbati koeffitsiyentini oshishiga olib keladi”³.

Binobarin, bugungi kunga qadar ilmiy doirada optimal dividend siyosatini shakllantirish bo'yicha asosan rivojlangan mamlakatlar moliya bozorlari va kompaniyalari doirasida izlanishlar amalga oshirilganligini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Shu bilan birgalikda, o'rganishlarimizga ko'ra respublikamizdag'i hamda MDH davlatlari tadqiqotchilarini tomonidan aksiyadorlik jamiyatlarini dividend siyosati parametrlari kompleks holda juda cheklangan darajada tadqiq etilganligini kuzatishimiz mumkin. Lekin, shuni ham aytib o'tishimiz kerakki, alohida ilmiy tadqiqotlarda dividend siyosatining ayrim jihatları haqida fikr yuritiladi.

Jumladan, N. M. Rasulovning ta'kidlashicha, “korporativ boshqaruvning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishda aksiyadorlik jamiyatining dividend siyosati muhim dastaklardan biri bo'lib, korxonada dividend siyosatini to'g'ri yuritilishi aksiyadorlar, salohiyatli investorlar, kreditorlar, qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarini qiziqishlarini ortishiga hamda korxonaning muayyan obro'sini yaratishda muhim omil hisoblanadi”⁴.

Rus iqtisodchi olimi I. Y. Lukasevichning fikriga ko'ra, “amaliyotda dividend siyosati aksiyadorlik jamiyatları faoliyatida muhim rol o'ynaydi, u aksiyalar qiymatining tebranishiga ta'sir qiladi, o'z kapitalini o'zgarishiga olib keladi va natijada, aksiyalar bozor qiymatiga hamda jamiyatning investitsion jozibadorligiga ta'sir o'tkazadi”⁵.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, aslida, dividend siyosati masalasi kam doiradagi tadqiqotlarning bevosita yoki bilvosita ilmiy tadqiq etish obyekti doirasiga mos kelsada, shu bilan birga aksariyat aksiyadorlik jamiyatlar o'z faoliyat maqsadini dividend to'lovlarni amalga oshirish bilan bog'lamasada, fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatları investitsion jozibadorligini oshirishda dividend siyosati ilmiy asoslanib, aniq shakllantirilgan hamda tegishlichä rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim. Shu boisdan, olib borilayotgan tadqiqotlarda dividend siyosatining barcha bazaviy parametrlari kompleks holda tadqiq etilishi maqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz. Zero, tadqiqotchilar Y. Brigxem va M. Erxardtlarning ta'kidlashicha, “sof foydani taqsimlash siyosatini tez-tez o'zgartirilishi aksiyadorlik jamiyatlarining qiymatiga va natijada investorlarning qiziqishlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi”⁶.

Umuman olganda aytishimiz mumkinki, samarali korporativ moliyaviy boshqaruvning ajralmas tarkibiy qismini ijobji natija beruvchi dividend siyosatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida, iqtisodchi va olimlar tomonidan optimal dividend siyosatini tadqiq etish masalalariga ko'proq e'tibor qaratish bilan birga mavjud xorijiy tajribalardan unumli foydalanishni taqozo etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida xalqaro dividend siyosati tajribalaridan hisoblangan “S&P 500 Dividend Aristocrats” amaliyoti va uni milliy aksiyadorlik jamiyatları faoliyatida qo'llash imkoniyatlarini o'rganishning uslubiy jihatlarini tadqiq etish maqsadida ilmiy tadqiqot olib borishning iqtisodiy-statistik, monografik tadqiq etish, solishtirma tahlil, tanlama kuzatuv, taqqoslash va boshqa usullaridan foydalanildi.

3 Шим Джей К., Сигел Джоэл Г. Финансовый менеджмент: пер. сангл.М.: Филинъ, 1996.400 с. 342 стр.

4 N. M. Rasulov. Korporativ boshqaruv – investitsiyalar samaradorligi kafolati, Monografiya, –Т. : TDIU nashriyoti, 2011-yil, 126 b.114-bet.

5 И.Я.Лукасевич. Финансовый менеджмент: учебник. 4-е изд., перераб. и доп. М.: Национальное образование, 2013. 768 с.

6 F. Eugene Brigham, C. Michael Ehrhardt. Financial Management. Theory and practice. 12e.Thompson Learning, Inc. 2008. P. 640–647.



Dividend siyosatini oqilona olib borish orqali korporatsiyalar o‘z aksiyalarining qiymatini oshirishlari yoki barqaror tarzda saqlab turishlari mumkin bo‘ladi. Xorijiy korporatsiyalar tajribalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, aksariyat korporatsiyalar ayrim hollarda yuqori yoki kutilgan miqdorda daromad ko‘rmagan holatda ham aksiyadorlarga to‘lanadigan dividend miqdorini kamaytirmaslikka harakat qilishadi.

Hozirgi kunda jahon amaliyotida fond bozori ishtirokchilari orasida dividendlarga asoslangan strategiyalar juda mashhur bo‘lib, ushbu strategiyalarni qo‘llash natijasidan hosil qilingan portfel yuqori dividendlar to‘laydigan kompaniyalarning qimmatli qog‘ozlaridan iborat bo‘ladi. Biroq, bu strategiyalar hali mamlakatimiz fond bozorida keng tarqalmagan. Mazkur strategiyalarning asosiy g‘oyasi sifatida nafaqat aksiyalar narxining o‘zgarishidan foyda olish, balki yuqori dividendlar va ularni qayta investitsiyalash hisobiga maksimal rentabellikka erishish nazarda tutiladi.

Dividendlarga asoslangan strategiyalarni bir qancha ko‘rinishlari mavjud. Bunda har bir strategiyani qo‘llash o‘ziga xos xususiyatlari, algoritmi bilan bir-biridan farqlanadi:

Yaxshi istiqbolga ega bo‘lgan aksiyalarni sotib olish strategiyasi. Bunda aksiya kursining o‘sishi va dividendlar hisobiga foyda olish ko‘zlanadi.

Barqaror dividend to‘lanuvchi aksiyalarni maqsadli sotib olish strategiyasi. Bunda domiy pul oqimini yaratish maqsadi ko‘zlanadi.

Dividend to‘lovlarini e’lon qilinishidan avval aksiyalarni sotib olish strategiyasi. Bunda asosan spekulativ maqsadlar ko‘zlanadi.

Fikrimizcha, investorlar tomonidan ma’lum bir turdagи dividendlarga asoslangan strategiyalarni qo‘llashda aynan dividend aristokratlariga asoslangan holda portfel shakllantirish eng maqbul usul sanaladi. Shuning uchun ushbu tadqiqot ishimizda mazkur masalani chuqurroq o‘rganishni hamda mamlakatimiz fond bozorida qo‘llash imkoniyatlarini tadqiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Jahon iqtisodiyotida dividend aristokratlari aynan S&P500 Dividend Aristocrats indeksi tarkibiga kiritilgan bo‘lsada, oxirgi paytlarda shu yo‘nalishda boshqa indekslar ham paydo bo‘la boshladi. Masalan, S&P Europe 350 Dividends Aristocrats indeksi shular jumlasidandir. Shunga qaramay, xalqaro amaliyotda S&P500 Dividend Aristocrats indeksi bozorda benchmark vazifasini bajarganligi sababli, uni alohida ahamiyatlidir deb hisoblaymiz.


S&P 500 “Dividend Aristocrats” (S&P 500 “Dividend aristokratlari”) – aksiyadorlarga to‘lovlarini 25 yil davomida barqaror ravishda oshirib boruvchi kompaniyalar asosida shakllantiriladigan maxsus indeksdir. Ushbu indeks 1989 yildan beri e’lon qilinib kelinmoqda. Uning tarkibidagi kompaniyalar har yilgi moliyaviy natijalar bo‘yicha qayta ko‘rib chiqiladi. Indeks tarkibiga kiritilishi uchun kompaniyalarga quyidagicha talablar qo‘yiladi:

- Kompaniya S&P 500 indeksi tarkibiga kirishi;
- Yillik dividendlar miqdorini 25 yildan kam bo‘lmagan muddat davomida barqaror o’stirib borgan bo‘lishi;
- Kamida 3 milliard AQSh dollarini miqdoridan kam bo‘lmagan bozor kapitalizatsiyasiga ega bo‘lishi;
- Uch oy davomida o‘rtacha kunlik aylanmasi kamida 5 million AQSh dollaridan kam bo‘lmasligi kerak va boshqalar.

Shuningdek indeks tarkibini aniqlashda tarmoqlar bo‘yicha diversifikatsiya cheklovlarini ham qo‘llaniladi va unga ko‘ra bir tarmoqda 30% dan ortiq bo‘lmasligi lozim.

Indeks tarkibi har yili-yanvar oyining oxirida qayta ko‘rib chiqiladi. Kompaniyalar tomonidan bir marotaba dividend to‘lovlarining o‘sishini o’tkazib yuborishning o‘zi ularni ushbu ro‘yxatdan chiqarib yuborilishiga yetarlicha sabab hisoblanadi. 2023-yil may holatiga ko‘ra ushbu indeks tarkibiga 66 kompaniyalar kiritilgan.

Bunday kompaniyalar qatoriga Dover, Emerson Electric, Genuine Parts, Procter & Gamble, 3M, Coca-Cola, Johnson & Johnson, Exxon Mobil, PepsiCo, Colgate-Palmolive, Walmart va boshqa kompaniyalar kiradi.



1-rasm: S&P 500 “Dividend Aristocrats” indeksi tarkibidagi kompaniyalarning iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha joylashuvi⁷


7 S&P 500 “Dividend Aristocrats” indeksi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



Shu bilan birgalikda mazkur “Dividend Aristocrats” indeksi yuqori diversifikatsiyalangan bo’lib, iqtisodiyotning 11 tarmogi’i bo‘yicha keng yoyilganini kuzatishimiz mumkin. Ushbu tarmoqlar ichida sanoat va iste’mol tovarlari bo‘yicha tarmoqlar eng yuqori ulushga ega (1-rasm).

Shu o’rinda haqli bir savol tug’iladi, kompaniyalarga bunday indeks ro’yxatidan joy olish qanday naf keltiradi? Kompaniyalar tomonidan aynan bu kabi agressiv dividend siyosatini yuritilishining sababi nimada? Bu savollarga oddiy javob qaytaradigan bo’lsak, biz bilamizki, har bir kompaniya ham bunday uzoq muddat davomida dividend to’lovlarni o’stirib borishga qodir emas. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun kompaniyalar birinchi navbatda barqaror va kuchli raqobatdoshlik xususiyatlariga ega bo’lishi, shuningdek o’z kapitalini mu-kammal boshqara olishi kerak bo’ladi. Kuchli fundamental natijalar esa bu faktorlarning ifodasi hisoblanadi. Va natijada dividendlar o’sib boradi. “Dividend Aristocrats” borasida ushbu masalaning juda keskin tus olishini kuzatishimiz mumkin bo’ladi. Chunki ular bozor ishtirokchilarining ishonchini oqlashliklari lozim bo’ladi.


Yuqorida qayd etib o’tganlarimizga qo’shimcha ravishda dividend aristokratlaridan biri bo’lgan, “Coca-Cola” kompaniyasi tomonidan dividend to’lovlaringin yillar davomida o’sish grafigini keltirib o’tishni lozim topdik (2-rasm).



2-rasm: “Coca-Cola” kompaniyasining dividend to’lovlari tahlili⁸

“Coca-Cola” kompaniyasi 1886 yilda tashkil etilgan bo’lib, u choraklik dividendlarni to’lash bilan birga so’ngi 58 yil davomida dividend to’lovlarni barqaror oshirib ham kelmoqda. Fikrimizcha, kompaniyalar tomonidan dividendlarni yuqoridagi kabi dividend to’lovlarni amalga oshirishda ushbu dividend siyosatining qay bir turiga amal qilinayotganligiga qarab dividend to’lovlaringin muntazamligini ta’minlashi lozimdir.

Olib borgan tahlillarimizda ushbu indeksi tarkibidagi kompaniyalarning dividend to’lovlari davrini tahlil qilanimizda ularning aksariyati choraklik dividend to’lovlarni amalga oshirishini aniqladik (3-rasm).



3-rasm: S&P 500 “Dividend Aristocrats” indeksi tarkibidagi kompaniyalarning dividend to’lovlari davri bo‘yicha tarkibi⁹

Jumladan, joriy davrda indeks tarkibidan o’rin olgan 66 ta kompaniyalarning 64 tasi choraklik dividendlari to’lamoqda, bu orqali ushbu kompaniyalar aksiyadorlarning daromadliligini muntazam ta’minlash hisobiga investitsion jozibadorligini oshirilishiga sabab bo’lishi bilan birga kompaniya faoliyati haqida bozorga doimiy ravishda “signal” ham bermoqda.

8 “Coca-Cola” kompaniyasining hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

9 S&P 500 “Dividend aristokratlari” indeksi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan xalqaro dividend siyosatini yuritish amaliyoti tajribalari bo'yicha fikr-mulohazalar, tahlilar asosida mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida dividend siyosatini optimallashtirishda qo'llash mumkin bo'lgan quyidagi tavsiyalarimizni keltirib o'tishimiz mumkin:

Birinchidan, biz tomonimizdan o'rganilgan xorijiy kompaniyalarda dividend to'lovlari asosan choraklik amalga oshiriladi. Fikrimizcha, ushbu amaliyotni respublikamizdagi aksiyadorlik jamiyatlari dividend siyosatini yuritish amaliyotida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunda aksiyadorlik jamiyatlari rivojlanishining dastlabki yillarda yarim yillik dividendlarni, keyingi bosqichlarda esa choraklik dividendlarni qo'llash orqali nafaqat emitentlarning moliyaviy holatini yaxshilash, balki mamlakatimizda keng amalga oshirish rejalashtirilayotgan xususiyashtirish amaliyotlarini samarali amalga oshirishga zamin yaratiladi deb, hisoblaymiz.

Ikkinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan amalga oshirilayotgan dividend siyosati barcha bozor ishtiroychilari uchun tushunarli bo'lishi bilan birgalikda, ushbu siyosat fond bozori tomonidan axborotlarni yetkazuvchi ma'lum bir tizim sifatida qo'llanilishini yoddan chiqarmaslik lozim. Shu munosabat bilan respublikamizdagi aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investorlarning ishonchini qozonish va kompaniyalarning investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida dividend to'lovlari naqd pulda to'lanishi maqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz.

Uchinchidan, bizningcha, aksiyadorlik jamiyatlari dividend siyosati ularning investitsion jozibadorligiga bevosita ta'sir etish xususiyatidan kelib chiqqan holda respublikamizda ham aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan dividend to'lovlari to'lash holatini aks ettiruvchi maxsus indeks joriy qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, mahalliy fond bozorining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda to'lanayotgan dividendlar bo'yicha mahsus indeksni joriy etilishi orqali investorlarning fond bozoriga qiziqishlari ni ortishiga erishish bilan birga xususiyashtirish jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga zamin yaratilgan bo'lar edi.

Umuman olganda xulosa qilib aytganda, respublikamizdagi aksiyadorlik jamiyatlari korporativ moliyaviy boshqaruv faoliyatlarida dividend siyosatini takomillashtirishda xorijiy kompaniyalarda dividend siyosatini yuritish tajribalarining mumkin bo'lgan yo'nalishlaridan foydalaniishi natijasida optimal dividend siyosatini shakllanish masalasida ijobji natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli Farmoni.
2. Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna. Rivojlangan korporatsiyalarda dividend siyosatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari // Ekonomika i finansy (Uzbekistan). 2020. №1 (133).
3. Шим Джей К., Сигел Джоэл Г. Финансовый менеджмент: пер. сангл.М.: Филинъ, 1996.400 с. 342 стр.
4. N. M. Rasulov. Korporativ boshqaruv – investitsiyalar samaradorligi kafolati, Monografiya, –Т. : TDIU nashriyoti, 2011-yil, 126 b.114-bet.
5. И.Я.Лукасевич. Финансовый менеджмент: учебник. 4-е изд., перераб. и доп. М.: Национальное образование, 2013. 768 с.
6. F. Eugene Brigham, C. Michael Ehrhardt. Financial Management. Theory and practice. 12e.Thompson Learning, Inc. 2008. P. 640–647.

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.